

O'YINNING BOLA RIVOJLANISHIDA TUTGAN O'RNI

Xudoyberganova Maqsuda Ortiqboy qizi

Guliston Davlat Pedagogika Instituti talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o'yinning bola hayotidagi ahamiyati, bolalar o'yin orqali nimalarga erisha olishi, o'yin bolani qanchalik rivojlantirishi haqida fikrlar yoritilgan. Ushbu maqola ota-onalar va tarbiyachi pedagoglarga tavsiya etiladi

АННОТАЦИЯ: В этой статье обсуждается значение игры в жизни ребёнка, чего дети могут достичь с помощью игры и как игра способствует развитию ребёнка. Статья рекомендована родителям и педагогам.

Kalit so'zlar: Erta rivojlanish, kompetensiya, psixologiya, shaxs

O'yin-maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. Agar maktabgacha yoshni oladigan bo'lsak ya'ni 3yoshdan 7yoshgacha bo'lgan bolalarga talim berishda milliy anana va qadriyatlarimizni o'rgatishda tarbiyani singdirishda bolaga o'yin orqali o'rgatish samarali va qulaydir. Chunki o'yin bola uchun qiziqarli va charchamaydigan zavqli jarayon. O'yin orqali bola tevarak atrofni, kattalarga hurmatni, insonlar bilan munosabatga kirishishni o'rganadi. Maktabga ilk qadam qo'ygan yoki maktab hayotiga moslashib ulgurgan bolalar uchun ham o'yindan cheklab qo'yish kerak emas. Chunki bola o'qish mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarida har hil o'yinlar o'ynashda davom ettiradi. O'yin jarayonida bola o'z o'zini idora qilishga, o'z harakatlarini o'yin qoidalariga bo'ysundirishga ya'ni o'z xoxishlarini qoidalariga moslashtirishga javobgarlikni sezishga jamoa manfaatini ustun qo'yishga odatlanadi. Bola qanchalik o'yinga to'yib ulg'aysa shuncha fikrlash doirasi dunyoqarashi tasavvuri keng bo'ladi. O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning xatti-harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob-axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida shifokorlik yoki o'qituvchilik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlar shunchalik samimiy, ijodiy

tarzda namoyon bo'ladi. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga yetishiga ta'sir ko'rsatishdin iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga, o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (havas)lari bevosita o'yinda ifodalanadi. O'yin bolalarning xayolparastligi tufayli narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga "o'zgartirish" imkoniyatini beradigan faoliyatdir. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'ekti sifatida alohida ahamiyatga ega. O'yin haqida bir qancha olimlarimizni ham fikrlarini nazar tashlasak rus pedagogi A.S. Makerenko "bola o'yinda qanday bo'lsa, o'sib ulg'aygach ishda ham ko'pincha, ko'p jihatdan shunday bo'ladi"-deb to'g'ri aytgan edi. A.M. Gorkiy "o'yin-bolalar uchun hayotni bilish maktabidir" va boshqalar. O'yin tushunchasini pedagogik amaliyotga Fridrix Frebel 1-bo'lib fanga kiritgan. U o'yinni talim tarbiya vositasi sifatida asoslab berdi.

Bobokalonlarimizni ham o'yin haqida o'z qarashlari bo'lgan. Ibn Sino "o'yin bola tanasi va ruhini chiniqtiradi, aqlini tetiklashtirib, talimga tayyorlaydi", Alisher Navoiyning "o'yin bolalikning tabiiy ehtiyoji bo'lib u orqali odob, sabr va hamjihatlikni o'rganadi", Yusuf Xos Hojibni "o'yin va talim muvozanatda bo'lsa bola sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetadi" degan fikrlari juda ham to'g'ri va asoslidir. O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatning psixik taraqqiyoti uchun ahamiyati shundaki bolalarning turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o'zlashtirililadi. Shuning uchun psixologik nuqtai nazaridan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida – sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi. O'yin ahamiyati jihatidan kattalarning harakterlariga, harakatlariga taqlid qilishi

tufayli bolalarda manaviy sifatlarning mustahkamlanishi va odob axloq qoidalariga amal qilishi kerakligini tushunib boradilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda talimiy o'yinlarni tashkil etishdan maqsad bolani atrof muhitdagi narsa hodisalarni asosiy hususiyatlari bilan tanishtirib borish, og'zaki nutqini rivojlantirish, so'z boyligini ko'paytirish, gramatik to'g'ri tallafuz qilishga o'rgatish, nutqni to'g'ri rivojlantirish, jismoniy tarbiya, tasviriy sanat plastilindan turli hil narsalar yasash, musiqa va boshqa mazmundagi mashg'ulotlar o'tkazib borish bolani aqliy jihatdan maktab talimini egallashga imkoniyat beradi. Katta odamlar uchun mehnat faoliyati qanchalik muhim bo'lsa, bolalar uchun o'yin ham shunchalik muhim hisoblanadi. Bolaning haddan tashqari o'yinga berilib ketishini, hayolan cho'pdan ot yasashi va hokozo shunga o'xshash real voqealikdan chetga chiqib ketish deb qaramaslik kerak. Bola voqealikni yani o'zi yashab turgan muhitni va undagi turli- tuman narsa hodislarni yaxshi ko'radi, bola o'zining voqealikka bo'lgan cheksiz muhabbatini va undagi voqea- hodisalarni bilishga, o'rganishga bo'lgan intilishini o'zining xilma-xil o'yinlarida ifoda etadi.

O'yinni tashkil etishda o'yinchoqlar ham yaxshi vosita hisoblanadi. Bolaning dastlabki oylarida 1-o'yinchoqlari "yumshoq o'yinchoqlar" bo'lishi kerak". ularning o'yinchoqlari yorqin, ushlab tura oladigan, xavfsiz yumshoq bo'lishi bola psixikasiga ijobiy tasir qiladi. M. Manaseinovaning fikriga ko'ra "onaning bolasi bilan o'ynaydigan ilk o'yinchog'i yorqin rangdagi predmetlar bo'lishi kerak". Albatta har bir bolaning sevimli o'yinchog'i bo'lishi kerak. Bola onasi bilan birgalikda yasagan har qanday o'yinchog'i sevimli mashg'ulot hisoblanadi va onasi ishtirokida matolardan yumshoq o'yinchoq yasalishi bolada katta qiziqish tassurot qoldiradi va sevimli o'yinchog'iga aylanib ulguradi. O'yinning foydali tomonlarini ilmiy nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak: 1. Ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi; 2. Abstrakt hayoliy kenglik yaratadi; 3. mehnat va o'quv faoliyati debochasi; 4. aktivligini oshiradi.

O'yin turlariga ko'ra : 1. predmetlarni manipulyatsiya qilish; 2. Konstruktiv o'yinlar; 3. Harakatli o'yinlar; 4. Rolli syujetli o'yinlar. Bolalar o'sib ulg'aygan sari o'yinning sujeti ham borgan sari xilma-xillashib boradi. Uning turi ko'paygan sari unga sarflangan

vaqt ham ortib boradi. Bolalar yoshiga qarab o'yin vaqti tashkil etiladi. Masalan 3yoshli bolalarga 10-15minut, 4-5yoshli bolalarga 40-50minut, katta yoshdagi bolalarga bir necha soat va undan ortiqroq vaqt mobaynida o'yin faoliyati tashkil etiladi. A.S. Makarenkoning fikricha bolalarning o'yin faoliyati ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun birdan bir vositadir. O'yin-bolaning ichki dunyosini himoya qilishda ham yaxshigina vosita hamdir. Va psixologik himoya vazifasini bajaradi. Yani: qo'rquvni yengadi, stressni kamaytirishga yordam beradi, tushunolmagan voqealarni qayta boshdan kechiradi. O'yin bu real hayotdan olingan "sinov maydoni". Bola ota-ona, do'st, tarbiyachi yordamida xavfsiz rollarni xavfsiz sharoitda sinab ko'radi.

O'yin-bolaning tilsiz nutqi hamdir. Har bir o'yin-bu habar. Bola o'yin orqali: Ayta olmagan hislarini ko'rsatadi; ichki ziddiyatlarini "sahnalashtiradi". Shu sababli psihologlar o'yinni diagnostic vosita sifatida ham ishlatadi [o'yin terapiyasi deyiladi]. O'yin orqali bola axloqiy tanlovni o'rganadi: halollik, adolatni, navbat kutishni, yutqazishni qabul qilishni o'rganadi. O'yin nafaqat bolalarga hos, balki kattalarda-ijodkorlik, keksalarda o'yin-miya va xotira faoliyati, jamoa bo'lib ishlashda esa yetakchilik va hamkorlikda ishlashga jamoani birlashishiga yordam beradi. Bolalarga o'yin tashkil etishda majburlash natija bermaydi, ularning qiziqishlariga, ehtiyojlariga qarab vazifa berilsa yokida biron narsa haqida tushuncha berishda o'yin samarali natija beradi.

XULOSA. Vaqtida, to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning har tomonlama normal rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bola o'yin o'ynashiga cheklovlar qo'yib tashlash emas, balki u bilan vaqti-vaqti bilan biz ota-onalar ham o'ynab turishimiz, bola bn o'rtadagi ishonchni, o'zaro aloqalarni mustahkamlaydi. Har bir narsada me'yor bo'lgani kabi bolaning yaxshi rivojlanishiga yordam beradigan vositalarni ham tartiblab, meyorida ishlata olish maqsadga muvofiq bo'ladi.